

ILK YOSHDAGI BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI**Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna****Ilmiy rahbar: KDPI Maktabgacha va
Boshlang'ich ta'lim Phd o'qituvchisi****Hamroyeva Muxlisa Omonjon qizi****Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20320514>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ilk yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan.

“Men” konsepsiyasi shaxsiyat poydevori bo'lib, bolaning o'zini anglash, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: “Men”konsepsiyasi, ilk yosh, bolalar psixologiyasi, o'zini anglash, shaxsiyat rivojlanishi.

Аннотация.

Данная научная статья посвящена изучению формирования и особенностей развития концепции «Я» у детей раннего возраста. Концепция «Я» является основой личности и играет важную роль в самосознании ребёнка, его эмоциональном и социальном развитии.

Ключевые слова: концепция «Я», ранний возраст, детская психология, самосознание, развитие личности.

Annotation.

This scientific article is devoted to the study of the formation and developmental characteristics of the “Self” concept in early childhood. The “Self” concept is the foundation of personality and plays an important role in a child's self-awareness, emotional development, and social growth.

Keywords: self-concept, early childhood, child psychology, self-awareness, personality development.

Kirish.

Ilk yosh davri inson shaxsiyatining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada o'zini boshqalardan ajratish, o'ziga xoslikni his etish va shaxsiy chegaralarni belgilashga intilish paydo bo'ladi. “Men” konsepsiyasining rivojlanishi bolaning dunyoni idrok etishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi va hissiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bola tarbiyasida “men” tushunchasi, ayniqsa bolaning o'zini bilishini va o'ziga bo'lgan hurmatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

“Men” konsepsiyasi - bir butun hosila va uning barcha tarkibiy qismlari mustaqil mantiqqa ega bo'lsa ham, o'zaro chambarchas bog'liqdir “Men” tushunchasi odatda bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda shakllana boshlaydi. Bir yosh atrofida - bola hali o'zini to'liq anglamaydi, lekin o'z tanasi va harakatlarini boshqalarnikidan ajrata boshlaydi. Bir yarim - ikki yoshda - o'zini oynada tanish kuzatiladi.

Ikki - uch yoshda - bola “men”, “o'zim”, kabi so'zlarni ishlata boshlaydi. Ammo yaqqol namayon bo'ladigan davr ikki - uch yosh hisoblanadi. “Men “ tushunchasini rivojlantirishga yordam beradigan usullar :

Bolaning o'z fikrini aytishga imkon berish;

Bola o'zini qadrlash, o'zini yaxshi his qilish va ishonishga yordam berish ;

Bolaning o'zini boshqalardan farqlangan shaxs deb bilishga yordam berish;
 Bolaning o'zini o'zi boshqarishga yordam berish;
 Bolaning o'zini rivojlantirishga yordam berish.

“Men” tushunchasi bola tarbiyasida eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Bolaning o'zini men deb bilishi, uning ruhiy salomatligini, o'ziga ishonishini va o'zini qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu tushuncha borasida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan L.S.Vigotskiyning ta'rifiga ko'ra o'z – o'zini anglash bu - insonning o'zi haqidagi tasavvurlarning dinamik tizimi bo'lib, o'zining jismoniy, intellektual va boshqa turli sifatlarini anglash bilan yuzaga keladi. Ushbu sifatlarga o'z – o'zining beradigan bahosida tashqi omillar, munosabatlar ham ta'sir etishi mumkin degan fikrni ilgari surgan. Z.Freydning klassik psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, “Men” konsepsiyasi inson psixikasining strukturali komponenti hisoblanadi, boshqacha aytganda, Zigmund Freyd shaxs shakllanishining psixik sturkturasini uch asosiy qismga bo'lib ko'rsatadi:

- 1.“U”
- 2.“Men”
- 3.“Oliy Men”

Asosiy qism.

Bu uchta komponent bolaning shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi degan fikrni bildirib o'tgan.

Ilk yosh davrda (1-3 yosh) bola o'zini atrofdagilardan ajratishni endigina boshlaydi. Bu davrda “men o'zim” kabi iboralar paydo bo'lishi bejiz emas. Bu davrda bola ko'roq harakat orqali o'zini namayon qiladi, mustaqillikka intiladi, lekin hali o'z imkoniyatlarini to'liq baholay olmaydi. Shu sababli kattalar bilan ziddiyatlar ham yuzaga keladi. Bu jarayon psixologiyada tabiiy rivojlanish bosqichi sifatida qaraladi. Maktabgacha yosh davrida esa “Men” konsepsiyasi ancha boyib boradi. Bola o'zining tashqi ko'rinishi, qobiliyatlari, his-tuyg'ulari haqida tassavur hosil qila boshlaydi. Bu jarayonning muhim jihatlardan biri - bola o'zini boshqalarning bahosi orqali anglashidir. Shuningdek, bu davrda rolli o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bola turli ijtimoiy rollarni (masalan, shifokor, o'qituvchi, ota-ona) bajarish orqali o'z “men” ini sinab ko'radi, ijtimoiy tajriba orttiradi. Bu jarayon uning o'zini anglash doirasini kengaytiradi va kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga zamin yaratadi. Umuman olganda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanishi biologik yetilish, ijtimoiy muhit va tarbiya omillarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, kattalarning munosabati va bola bilan olib boriladigan muloqot sifati bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, ushbu davrda bolaga nisbatan mehr, tushunish va rag'batlantirish asosiy tarbiyaviy yondashuv bo'lib xizmat qiladi. “Men”ni shakllantirish vositalaridan biri bu o'yin.

O'yin erta va maktabgacha yoshdagi bolaning “men”ini shakllantirishning unitar imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa bizga “men” ning yangi yo'nalishlarini shakllantirishga, o'z qadr- qimmatlarini oshirishga, harakatga keltiradigan, shaxsiy yuklardan xabardor bo'lishga, uni aks ettirishga, tahlil qilishga va baholashga, xulosalar chiqarishga, kelajakda undan foydalanishni bashorat qilishga imkon beradi. O'yinda bola tajribani taqqoslashni o'rganadi.

“Men”ni shakllantirish uchun ko'plab didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o'yinlar bolalarga (“men qila olaman”, “men buni qilaman”, “ bu mening

narsalarim”)qatorlarini shakllantirishga, ijobiy o’zlikni – bolaning shaxsiyat tushunchasini, ijobiy o’zini - o’zi qadrlashni, o’zini – o’zi qabul qilishga imkon beradi.

Taniqli tatqiqotchilar R.Berne, K.Blagha, M. Shebek va boshqalar “bolaning xatti – harakatlarida uning o’z – o’zini anglash tushunchasi bilan bog’liq bo’lmagan hech narsa yo’qligini takidlaydi. Shaxsiy kompetensiya ya’ni “Men” konsepsiyasini yaratish va shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarini namoyish etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda ilk yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasining rivojlanishi murakkab va ko’p qirali jarayon bo’lib, u bolaning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq. Ota -onalar va pedagoglar bolaning bu jarayonini rag’batlantirishi, ularga o’z tanlovlarini qilishlari va his-tuyg’ularini ifodalashlari xavfsiz muhit yaratib beruvchi muhim omillardan va muhim shaxslardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonlar bolaning kelajakda sog’lom shaxs bo’lib yetishishiga va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishi uchun mustahkam poydevor yaratadi, shu bilan birga bolaning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi va hayotiy ko’nikmalarni rivojlantiradi. Qiqsa qilib aytadigan bo’lsam “Men” tushunchasi bu bolaga kelajak eshiklarini ochib beruvchi oltin kalitdir, shu kalit orqali bola jamiyatga ilk qadamini qo’yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmatov. S.M(2022) Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi.
2. Zufarova.M.A (2021) yosh davrlar psixologiyasi
3. Axadjonova Gulruxsorning Maktabgacha yoshdagi bolalarda men konsepsiyasi indikatorlari bilan alaqador ko’nikma va malakalarni shakllantirish bo’yicha yozgan ilmiy maqolasi.
4. Yusupova Madinaning Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda “MEN” konsepsiyasini shakllantirishda rivojlanish markazlarining o’rni mavzusida yozgan maqolasi.